


**XORAZM VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2024- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 265,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 104,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 039 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 646 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 342 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan (1- aprel holatiga ko'ra)


2024		4039 dona
2023		4794 dona
2022		4298 dona
2021		3645 dona
2020		3058 dona

Jami yangi tashkil etilgan (yanvar-mart oylarida)


2024		342 dona
2023		258 dona
2022		319 dona
2021		320 dona
2020		397 dona

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 5 265,5 mlrd. soʻmni, shundan 0,9 mlrd. soʻm togʻ-kon sanoatiga, 5 064,6 mlrd. soʻm ishlab chiqarish sanoatiga, 162,7 mlrd. soʻm elektr, gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 37,3 mlrd. soʻm SUV bilan taʼminlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʼish va utilizatsiya qilish sanoatiga toʼgʼri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, 5 064,6 mlrd. soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 15,5 %ga kamayishi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati – 6,4 %ga o'sishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 43,2 %ga kamayishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 5,1 %ga o'sishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,02 % ga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 064,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 % ini tashkil etdi.




2024- yil yanvar-mart oylarini o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,12 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 0,06 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 43,2 % (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 37,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 4,2 %), quyi texnologiyali – 48,6 % (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 53,9 %) ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,4 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 61,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,7 % (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,8 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,8 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 2,5 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 67,9 %)ni tashkil etdi.


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 32 159,7 tonna (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,4 % ga kamaygan), paxta chigit 49 679,9 tonna (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 10,7 % ga kamaygan), 8 403,8 tonna paxtadan yigirligan ip (24,2 % ga oshgan), 930,0 ming kv.metr gilam va gilam mahsulotlari (2,6 marta oshgan), o'simlik yog'i 1 234,5 tonna (46,5 % ga kamaygan), paxta lindi 2 694,9 tonna (15,6 % ga kamaygan), uzum vinosi 68,9 ming litr (62,6 % ga kamaygan), 55,4 ming litr aroq (3,4 % ga kamaygan) hamda 11 904,9 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,3 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	2 309,2	1 234,5	-1 074,7
Shakar, tonna	57 053,6	23 880,2	- 33 173,4
Gilam, ming.kv	363,0	930,0	567,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	18 998,9	11 904,9	- 7 094
Paxta tolasi, tonna	33 994,1	32 159,7	-1 834,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-mart oylarida)


Yengil avtomobillar – umumiy yoki maxsus yengil avtomobilarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 18 996 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobilari ishlab chiqarish o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 12,7 % ga oshgani kuzatildi.



Maxsus yengil avtomobillar (2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Viloyatda 2024- yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 6 144 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 43,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 205,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,7 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 113,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 59,5 % va ishlab chiqarish hajmi 688,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 73,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 313,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 26,3 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 331,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 210,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 61,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 52,5 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 18,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 6,7 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

2024- yil yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 162,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmning 3,1 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 43,2 %ga kamayganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	371,8	313,9	- 57,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	56,0	52,0	- 4,0
Elektrenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	321 486,0	324 469,0	2 983,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan 2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,3 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvgaga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 25,7 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 martaga oshganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 49,2 %ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming.so'm	1 248 474,0	2 602 609,0	1 354 135,0
Tabiiy suv; suvgaga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	28 118 195,0	35 337 917,0	7 219 722,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	4 064 969,0	6 895 215,0	2 830 246,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 891,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,9 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 18,4 % ni tashkil etgan.



Aholi jon boshiga toʻgʼri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 2024- yil yanvar-mart oylarida 2 633,8 ming soʻm (2023- yil yanvar-mart oylarida 2 475,8 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 %ni koʻrsatmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida 2024- yil yanvar-mart oylarida kiritilgan 86 ta loyiha bo'yicha 331,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahsulotlarni sotish hajmi 129,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 31 ta yangi ish o'rirlari yaratildi

